



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 10-iyul, dushanba,
82 (23.803)-son

**KUN
HIKMATI**

Odamlarning
ochiq, samimiy
ishlaydiganlarga
ishonchi kuchli
bo'ladi. Chunki
ular o'ziga ishonadi,
birovni aldamaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Kecha mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Soat 8:00 da boshqa hududlarda bo'lgani singari 7-Samarqand saylov okrugidagi 1112 ta saylov uchastkasida davlat madhiyasi sadolari ostida o'z faoliyatini boshladi.

MUHM SIYOSIY JARAYON

Saylov kodeksi hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kalendar reja asosida viloyatimizda ham saylovga qizg'in hozirlik ko'rildi. Avvalo, barcha uchastkalar uchun eng qulay binolar tanlanib, uchastka saylov komissiyalari a'zolari, saylovchilar va kuzatuvchilar uchun zarur sharoit yaratildi. Barcha uchastkalarda yuqori tezlikdagi internet aloqasi ta'minlanib, 32 ta saylov uchastkasidagi ovoz berish jarayonlarini onlayn kuzatish mumkin bo'ldi.

Xalq deputatlari shahar va tuman Kengashlari tavsiyasi asosida tasdiqlangan uchastka saylov komissiyalari tarkibining umumiy soni 11823 nafarni tashkil etadi. Ularning 77 foizi avval saylov va referendumlarda qatnashgan, bu borada tajribaga ega. Uchastka komissiyalari a'zolari uchun bir necha bosqichda o'quvlar tashkil etilib, saylov qonunchiligi va muddatidan ilgari Prezident saylovi bo'yicha o'qitildi.

Saylov kodeksiga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lmaydigan fuqarolar muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Markaziy saylov komissiyasining qaroriga asosan, 28-iyun — 5-iyul kunlari amalga oshirilgan mazkur jarayonda viloyatda 92 mingga yaqin fuqaro muddatidan oldin ovoz berdi.



Belarus Respublikasi Milliy Assambleyasi kengashining xalqaro ishlar va milliy xavfsizlik bo'yicha doimiy qo'mitasi raisi Sergey Rachkov O'zbekistonda davom etayotgan saylov jarayonini bevosita kuzatdi.

Uning fikricha, saylovga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilgani tabiiy hol. Chunki O'zbekistonda professional Markaziy saylov komissiyasi shakllangan.

- Xabarim bor, saylov komissiyasi a'zolari o'qitiladi, - deydi S.Rachkov. - Bu safar Prezident saylovi muddatidan oldin o'tkazilayotgan bo'lsa ham bu tartibga rioya etilgan. Shuning uchun saylov o'tkazuvchi barcha tuzilmalar o'z ishini yaxshi biladi. Qolaversa, yaqinda referendum o'tkazilgani ham saylovni yuqori saviyada tashkil etish uchun o'ziga xos tajriba bo'ldi.

O'nlab saylov uchastkalarida bo'ldim. Lekin birorta qonunbu-

XORIJLIKLAR NIMA DEYDI?



zarlikka yo'l qo'yilganini ko'rma-dim. Bu yerda ilgari ham saylovlarni kuzatganman. Oilaviy ovoz berish holatlari uchrab turar edi, ya'ni bir oiladagi barcha uchun bir kishi ovoz berar edi. Tushuntirish ishlari bilan bunga ham barham berilganiga bugun amin bo'ldim.

Darvoqe, qaysi uchastkani tanlasak, borib, bevosita kuzatdik. Nafaqat xalqaro kuzatuvchilar, balki partiyalar vakillari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari xodimlariga ham barcha sharoitlar yaratilgan. Bu saylovning ochiqlik, xalqaro standartlar talablari asosida o'tishiga xizmat qilmoqda.

Umuman, muddatidan oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini 15 xalqaro tashkilot, qirgandan ortiq xorijiy davlatlardan kelgan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari kuzatib bormoqdi. Jumladan, yuz nafardan ortiq xalqaro kuzatuvchilar bugun Samarqand viloyatidagi ovoz berish jarayonlariga guvoh bo'lmog'da.

Turkiyadagi "Sohibqiron" strategik tadqiqotlar markazi direktori Mesut Emre Karakoze Samarqanddagi saylov uchastkalarida saylovchilarning faolligi ularning yurtertasiga befarq emasliklaridan dalolat

ekanligini ta'kidladi.

- Saylovga tayyorgarlik, ovoz berish jarayonlari yaxshi tashkil etilibdi. Bugun O'zbekiston xalqi o'ziga munosib yetakchini saylayapti. Men ishonaman, saylov natijasi o'zbek xalqining yorug' kelajagiga xizmat qiladi, - dedi Mesut Emre Karakoze.

Buyuk Britaniyadagi "Chishty consultancy" konsalting kompaniyasi rahbari Chishti Mak ilk bor O'zbekistonga kelib, saylov jarayonlarini kuzatayotgan bo'lsa-da, ushbu siyosiy tadbir haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lganini ta'kidladi.

- Avvalo, O'zbekiston Prezidenti saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etish imkoniyati berilgani uchun Markaziy saylov komissiyasiga minnatdorlik bildiraman, - deydi Chishti Mak. - Samarqanddagi uchta saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlarini kuzatdim. Tashkiliy ishlar juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Saylovchilarning faolligini alohida ta'kidlashni istardim. Yoshlar ham, keksalar ham uchastkaga kelib, o'z konstitutsiyaviy huquqidan foydalanmoqda.

Qonunchilik va belgilangan tartiblarga ko'ra, saylov kuni ayrim saylovchilar sog'ligining holatiga yoki boshqa sabablarga ko'ra ovoz berish binosiga kela olmagan taqdirda ularning yozma yoki og'zaki qilgan murojaatlariga asosan, tegishli uchastka saylov komissiyasi ovoz berishni saylovchilarning yashash xonadonlarida tashkil etadi. Bunda uchastka saylov komissiyasining kamida 2 nafar a'zosi ko'chma saylov qutisi bilan saylovchining turgan joyiga boradi.

UYDAN CHIQISH SHARTMAS...



Shundan kelib chiqib, Kattaqo'rg'on tumanidagi 404-saylov uchastkasi vakillari Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Raxmatilla Qobilov xonadoniga borib, ovoz berishini tashkillashtirdi.

Bu kabi imkoniyatdan boshqa uchastkada ro'yxatga olinganlar ham foydalanishdi.

- Yurtimizda keksa avlod vakillariga ko'rsatayotgan e'tibordan mamnunman, - deydi Samarqand shahrida yashovchi 91 yoshli Zariya ona Otaxo'jayeva. - 67-saylov uchastkasi vakillari uyimizga saylov qutisini olib kelishdi. O'zbekiston ravnaqi, yoshlarning porloq kelajagi uchun o'zim tanlagan nomzodga ovoz berdim.

- Samarqand davlat chet tillar institutini tamomlab, Londonda magistratura yo'nalishida tahsil olayman, - dedi Mustaqillik mahallasi fuqarosi Go'zal Murodova. - O'tgan gal Prezident saylovida Angliya elchixonasidan ovoz bergandim. Bugun ayrim sabablarga ko'ra saylov uchastkasiga borishga imkonim bo'lmadi. Uyimizga saylov uchastkasi a'zolari, mahalla faollari kelishdi. Men ovoz bergan nomzod mamlakatimiz rivoji, fan va ta'limning yuksalishi hamda xalqimizning farovon hayotini ta'minlash yo'lida zarur ishlarni amalga oshirishiga ishonaman.

HECH KIM BEFARQ EMAS

Yurtimiz va o'z kelajagiga befarq bo'lmagan yurtdoshlarimiz o'z konstitutsiyaviy huquqidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etdi.

Xususan, urgutlik Tolibjon Kamolov va Feruza Turonova hayotida bugun unutilmas kun. Ular oila qurib, yangi hayot ostonasiga qadam qo'ymoqda. Yosh kelin-kuyov nikohdan o'tish uchun sayrga chiqishdan oldin o'zlari istiqomat qilayotgan Bekravot mahallasidagi 1017-saylov uchastkasiga borib, munosib nomzodga ovoz berdi.

- Albatta, to'y bizning hayotimizdagi eng baxtiyor, unutilmas kun, - deydi Tolibjon Kamolov. - Lekin Prezident saylovi davlatimiz, butun xalqimiz hayotiga, ertangi kuniga daxldor masala. Shuning uchun dastlab saylov uchastkasiga borib, ovoz berishda qatnashdik.

Oqdaryolik 96 yoshli Idris boboning siyosiy faolligi boshqalarga ibrat bo'ldi, deyish mumkin. Zotan, ota-

xon nevaralari bilan Loyish shaharchasidagi 572-saylov uchastkasiga kelib, ovoz berdi.

- Obod va to'kin hayot, tinch-totuv turmush uchun ovoz berdim, - deydi Idris Hakimov. - Ilohim, Vatanimiz tinch, yurtimiz obod, avlodlarimiz baxtli yashasin!

Bundan tashqari, Ishtixon tumanidagi "Qoraqo'yli" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 349-saylov uchastkasidan Mahbuba Norboyeva 1-guruh nogironi bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston Prezidenti saylovida faol ishtirok etdi.

Aslida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Muhimi, xorijlik kuzatuvchilar e'tirof etganidek, hamyurtlarimiz avvalo, o'z taqdiri, yurtimiz kelajagiga befarq bo'lmagan, siyosiy jarayonda faol ishtirok etdi.

Viloyatda 760 nafar yigit-qiz ilk bor saylovda ishtirok etib, ovoz berishi rejalashtirilgan. Ular orasida turli xalqaro sport musobaqalari g'oliblari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori" kabi nishon sohiblari bor.

ILK MARTA OVOZ BERISHDI

Ulardan ayrimlarining Prezident saylovidagi ishtiroki bilan qiziqdik.

- Ayrim tengdoshlarimning saylov nega kerak deganlarini eshitib qolsam, jim qarab turolmayman, - deydi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Farangiz Xudoyorova. - Ammo bugungi jarayonda men kabi yoshlar faolligini ko'rdim. Suhbat jarayonida "Saylovda o'z nomzodimga ovoz berar ekanman, bu menga g'urur va iftixor baxsh etishi qatorida o'zimning jamiyat uchun kerakli fuqaro ekanimni his etdim. Bu jarayon jamiyatda faol bo'lishga turkib beradi", degan umumiy xulosalaridan shodlandim.

- Hech narsa besabab bo'lmaganidek, prezident saylovining muddatidan oldin o'tkazilayotgani Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni tezroq hayotga tatbiq etish ekanini boshqa tengdoshlarim kabi yaxshi tushunaman, - deydi 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'olibi, «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni sohibi Jahongir Vohidov. - Shu bois targ'ibot-tashviqot tadbirlarida har bir nomzodning saylovoldi dasturi bilan yaqindan tanishdim. Bugun esa konstitutsiyaviy huquqimdan foydalanib, yurtimiz tinchligi va farovonligi, o'zimning kelajagim uchun munosib nomzodga ovoz berdim.



ALOHIDA EHTIYOJI BORLAR-CHI?

Saylov uchastkalarida ovoz berish jarayonlarini tashkil etishda nogironligi bo'lgan shaxslar, bemorlar va keksalar uchun qulay sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Uchastka saylov komissiyalari ma'lumotlari asosida uchastkalarga ko'zi ojiz fuqarolar uchun brayl alifbosida chop etilgan byulletenlar va boshqa zarur vositalar yetkazib berilgan.

Samarqand shahar Kimyo-garlar qo'rg'onida joylashgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan (kar va zaif eshituvchi) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 61-sonli

maktab-internatda tashkil etilgan 107-saylov uchastkasida 1041 nafar saylovchi qatori Karlar jamiyati viloyat bo'limi a'zolari ham ovoz beradi.

- Jamiyat a'zolarining ovoz berishlarida qulaylik yaratish maqsadida uchastkaga malakali surdo tarjimonlar biriktirilgan, - deydi 107-uchastka saylov komissiyasi raisi Gulyara Ergasheva. - Ular eshitishida nuqsoni bo'lgan saylovchilarga nomzodlar hamda ovoz berish tartibi haqida ma'lumot berib, ularning o'z huquqidan to'laqonli foydalanishiga yordamlashmoqda.



↓ Prezident qaroriga ko'ra

Iqtisodiyotda davlat ishtiroki qisqartiriladi

Prezidentimizning 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, fond birjasiga chiqarilgan davlat aksiya paketlarini sotishga va oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishga faqat savdo jarayonlarida kamida ikkita ishtirokchi qatnashganda ruxsat beriladi.

Barcha muassasalarining asosiy vositalarini sotish yoki ijaraga berish "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi.

2023-yil 1-iyuldan jismoniy shaxslarga "Davlat mulki" axborot tizimi orqali maydoni 2000 metr kvadratgacha bo'lgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy lashtirish yoki ijaraga berish uchun to'g'ridan to'g'ri onlayn auksion savdolariga chiqarish bo'yicha arizalar berish huquqi berildi.

2023-yil 1-sentabr-dan ko'chmas mulk obyektlari va davlat ulushlari xususiy lashtirilganligi to'g'risidagi davlat namunasidagi order va sertifikat Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali QR-kod qo'yilgan holda beriladi.

Onlayn auksion sav-

dolarida davlat mulki obyektlarini sotib olgan xaridorlar bilan shartnomalar savdo natijasi bo'yicha bayonnoma asosida "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron shaklda (shu jumladan, elektron imzo orqali) rasmiylashtiriladi.

Har chorakda tegishli boshqarma va tashkilot xodimlari joyiga chiqqan holda investitsiya majburiyatlarining bajarilishini oraliq monitoring qilish tartibi bekor qilinmoqda. Investitsiya majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni qo'oz shaklda taqdim etish tartibi bekor qilinib, tegishli davlat organlari va tashkilotlarining elektron bazasini "Davlat mulki" axborot tizimiga integratsiya qilish va tadbirkorlar elektron tizimiga kiritadigan ma'lumotlar orqali hisobotlarni olish yo'lga qo'yiladi.

Tadbirkorlarning qonuniy huquqlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bu tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga, xususiy mulk himoyasini yanada kuchaytirishga hamda investitsiya bozoridagi raqobatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yaqin o'tmishga qaraydigan bo'lsak, Bosh qomusimizning atigi ikkita moddasida "tadbirkor" so'zi ishlatilgan.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda tadbirkorlik subyektlarining qonuniy himoyasini ta'minlashga qaratilgan to'rtta mustaqil modda kiritildi.

Xususan, Asosiy qomusimizdagi 5-moddaning birinchi qismi muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillarini belgilaydi, ikkinchidan, iqtisodiy siyosatimizning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlarini Konstitutsiya darajasida e'tirof etadi. Uchinchi-dan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti bozor munosabatlarga asoslanganligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Ushbu normaning Konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilishi O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlarga asoslanganligini e'tirof etadi, mulk shakllarining xilma-xilligi, iste'molchilar huquqlarining ustuvorligini, erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini ta'minlaydi. Mulk shakllari teng huquqliligi va bab-baravar muhofaza qilinishini kafolatlaydi. Xususiy mulkning huquqiy himoyasi va daxlsizligini ta'minlaydi.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasiga ko'ra, joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatdagi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 173,4 milliard so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa 1,6 foizni, 2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 foizni tashkil etdi.

ham kamida 100 ta yangi ish o'rni, degani. Mahalla hududi sanoatlashsa, unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni shu yerning o'zida qayta ishlash va realizatsiya qilish mumkin bo'ladi.

Mahalla raisi G'anisher Soyibovning aytishicha, avval boshida fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash maqsadida chorva uchun kredit ajratilgan. Biroq bu o'zini oqlamadi. Shundan so'ng barcha kuch va e'tiborni hududni sanoatlashtirishga qaratishgan. Bugungi kunda mahalladagi "Temir daftar"da mehnat qobiliyatini yo'qotgan 8 nafar fuqaro qolgan, xolos. Boshqalar hukumatimiz tomonidan ajratilayotgan subsidiya hamda imtiyozli kreditlardan unumli foydalanib, tadbirkorlik hamda kasanachilik faoliyatini boshlagan.

Ikki qo'shni sheriklikda tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qaror qildik, - deydi Abror Muxtorov. - Ayni masala bilan hokim yordamchisiga murojaat qilganimizda, bizga imtiyozli kredit ajratib berdi. Bu pulga ikkita zamonaviy dastgoh sotib olib, mebel ishlab chiqarishni boshladik. Ishimiz kun sayin yaxshilanib, xaridorlarimiz ko'payib bormoqda.

Bu mahallada tikuvchilik bilan shug'ullanuvchi ayollarga ham subsidiya asosida tikuv mashinkalari olib berilgan. Ulardan talab qilinadigan yagona narsa - ishsiz xotin-qizlarni ham shu kasbga o'rgatib, bandligini ta'minlash.

Xullas, mahallada ish qaynayapti. Bunda to'g'ri yo'nalishni tanlagan, aholi bilan bamaslahat ishlaydigan hokim yordamchisi va boshqa mahalla faollarining his-sasi katta. Bu tajribadan qolganlar ham andoza olsa arziydi, nazarimizda.

Asqar BAROTOV.

QISHLOQ XO'JALIGIDAN SANOATGA

Jomboy tumani markazidan 30 kilometr uzoqlikda joylashgan Juriyat mahallasidamiz. Bu yerda istiqomat qiluvchi 4700 nafarga yaqin aholi asosan g'alla va poliz mahsulotlari yetishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Hartugul, mahallaga hokim yordamchisi tayinlanguncha shunday bo'lgan. Hozir tuman chetidagi bu mahallaning o'z bankomati, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxona va tadbirkorlari bor.



Ish boshlaganimda hududdagi vaziyat og'ir edi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Sherov Davronov. - Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma yo'q, xususan, elektr ta'minoti va yo'llar bilan bog'liq jiddiy muammolar bor edi. Shu bois mahalla faollari bilan maslahatlashib, dastlab aholining yashash sharoitini yaxshilashga kelishib oldik. Ayni maqsadda Buxoroga borib, ilg'or hamkasblarimning tajribasini o'rganib keldim. Mahalla ahli bilan hamkorlikdagi mehnatimizning birinchi natijasi "Open budget"da 5 ta transformator yutib olganimiz bo'ldi.

Suhbatdoshimizning aytishicha, hudud-da elektr ta'minoti yaxshilangach, fuqarolarning o'zgarishlarga bo'lgan ishonchi, faolligi yanada ortgan. Natijada boshqa muammolar ham birin-ketin hal qilina boshlagan. Xususan, o'tgan davrda mahalla ko'chalarining 1,5 kilometr qismiga asfalt, 4 kilometr qismiga shag'al yotqizildi. Maktabga olib boruvchi asosiy ko'chada piyodalar yo'lagi qurildi. Shu kunlarda te-

gishli dasturga kiritilgan 2,7 kilometr ko'chaning asfaltlanishi kutilmoqda.

Bu ishlar osonlik bilan bo'lgani yo'q, - deydi Sherov aka. - Har biri uchun alohida reja va dastur tuzish, tasdiqlatish, mablag' ajratilishini kutish, pudratchilar ishini nazorat qilish, yetmagani ha-shar yo'li bilan to'ldirish kerak bo'ldi, xullas, butun mahalla bir yuqadan bosh chiqardik. Ahilligimiz ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash, hududni sanoatlashtirishda ham muhim omil bo'lmoqda.

Ta'kidlanishicha, hokim yordamchisining sa'y-harakatlari bilan mahalladagi qarovsiz yotgan 2 gektar yer kichik sanoat zonasi uchun ajratilibdi. Yaqin kelajakda bu yerda 200 kishini ish bilan ta'minlash imkonini beradigan korxona va fabrikalar quriladi. Shuningdek, mahalladagi yana 5 gektar shunday yer auksion orqali tadbirkorlarga berilishi bo'yicha tegishli dastur ishlab chiqilmoqda. Bu



TADBIRKORLIK KONSTITUTSIYA BILAN HIMOYALANDI

O'zbekiston Respublikasida mulkning xususiy va ommaviy mulk shakllari belgilangan bo'lib, bu Konstitutsiyamizda e'tirof etilgan mulkchilikning xilma-xil shakllarining huquqiy asoslarini belgilaydi.

Xususiy mulk bozor munosabatlari asosiy iqtisodiy manbaidir. Fuqarolar bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlarining barcha shakllari xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadi.

Xususiy mulk huquqi bu shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Konstitutsiyada mazkur normaning belgilanishi iste'molchilar huquqlari ustunligi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini belgilaydi. Barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishining kafolatlanishi kabi qoidalar iqtisodiyotimizda tub o'zgarishlar yasalishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishi, bozor iqtisodiyoti mexanizmining shakllanishi va rivojlanishiga, ishlab chiqarishning o'sishiga imkon yaratadi. Tadbirkorlik va mehnat qilish

erkinligini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishga harakat qilinadi. Ular faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Moddaning ikkinchi qismida esa mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini bartaraf etishni qonuniy talab qilishi mumkinligi belgilangan.

Bu tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa organlarning noqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan o'z xohishlariga ko'ra bo'ysunuv tartibi asosida yuqori turuvchi organlar yoki sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi yuzasidan davlat organlari va boshqa organlarning qarori, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsiz-

ligi) ustidan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Moddaning uchinchi qismida Konstitutsiyada xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan holda va tartibdagina hamda sudning qaroriga asosan mulkdan mahrum etilishi mumkinligi belgilangan.

Xususiy mulkning daxlsizligi, xususiy mulk huquqining subyektlari davlat mulki ega bo'lgani kabi barcha huquqiy kafolat va imkoniyatlardan keng foydalanishida, xususiy mulk manfaatlariga qaratilgan noqonuniy har qanday aralashish sud hokimiyati tomonidan himoya qilinishida, mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlar mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashida namoyon bo'ladi.

Mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy sur'atda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo'yish (sotib olish) yo'li bilan, shuningdek, mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan bekor bo'ladi. Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo'lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo'yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to'lanadi.

Shuningdek, xususiy mulk huquqi qonuniy ravishda bekor qilingan taqdirda ham (masalan, natsionalizatsiya) buning oqibatida mulkdorga yetkazilgan zarar bilan bir qatorda, mulk qiymati ham davlat tomonidan to'lanishi nazarda tutilgan.

E.RO'ZIEV, Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi tomonidan 2023-yil davomida kasaba uyushma budgeti va ijtimoiy sug'urta budgeti mablag'lari hisobidan viloyatimizdagi tashkilot hamda korxonalarda faoliyat olib borayotgan 6 mingdan ortiq ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish rejalashtirilgan.

ISHCHI-XODIMLARGA IKKI YILDA BIR MARTA SANATORIYLARGA



YO'LLANMA BERILADI

Joriy yilning o'tgan davri davomida 1 ming 110 nafar ishchi-xodim va ularning oila a'zolari respublikamizning turli hududlaridagi sanatoriylarda dam olib, sog'ligini tikladi.

Jumladan, 1 milliard 802 million 142 ming so'mlik sanatoriy yo'llanmalari bilan 520 nafar ishlovchi xodimlar sog'lomlashtirilgan bo'lsa, 2 milliard 80 million 129 ming so'mlik sanatoriy yo'llanmalari bilan ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolaridan 590 nafari dam oldi.

Shundan O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining dasturi asosida sanatoriy yo'llanmalarining 47 tasi mehnat va urush faxriylari, baynalmilalchi jangchilar, chernobilchilar, olis va chekka hududlarda yashovchi farzandtalab yosh oila vakillari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ishlovchi vakillariga bepul berildi.

Respublika Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raysatining 2020-yil 14-dekabrda "Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarni sanatoriylarda sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimizdagi 20 nafar o'qituvchi va murabbiylarimiz bepul sog'lomlashtirildi.

Sanatoriylarda sog'ligini tiklab, dam

olish uchun yo'llanma to'lovlari 3 xil tartibda bo'ladi:

1. Bepul (to'lovsiz) - mehnat va urush faxriylari, baynalmilalchi jangchilar, chernobilchilar, olis va chekka hududlarda yashovchi farzandtalab yosh oila vakillari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ishlovchi vakillari uchun.

2. Imtiyozli (45 foizli) to'lov asosida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining 2013-yil 26-yanvardagi 9-24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaga asosan ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolari imtiyozli ravishda, ya'ni yo'llanma qiymatining 45 foiz to'lovini to'lab, kasaba uyushmalari tizimidagi turli sanatoriylarda dam olishi mumkin.

3. To'liq (100 foizli) qiymatda, viloyat kasaba uyushma kengashi qoshida "Shuhrat oromi" MCHJ faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu korxona tomonidan hozirgi kunda vaqtincha ishlayotgan fuqarolarimiz uchun sanatoriy yo'llanmasining to'liq (100 foiz) qiymatini to'lab, o'z sog'ligini mustahkamlash imkoniyati yaratilgan. Ishchi va xodimlar kasaba uyushma yoki ijtimoiy sug'urta budgeti mablag'lari hisobidan yo'llanma olishidan qat'i nazar, unga ikki yilda bir marotaba sanatoriyya yo'llanma berilishi belgilab qo'yilgan.

Zarif JOZILOV, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashining ijtimoiy sug'urta bo'limi mudiri.

Keyingi paytda para-
limpiya sport turlarini
rivojlantirish, sport-
chilarning shug'ulla-
nishlari uchun sharoit
yaratish maqsadida
amalga oshirilayotgan
ishlar viloyatimizda
ham o'z samarasini
bermoqda.

Charos Balikova: E'TIROF SHIJOAT BAG'ISHLADI

Jumladan, 2021-yilda O'zbekiston Milliy para-
limpiya qo'mitasi viloyat bo'limi, 2022-yil O'zbekis-
ton Milliy paralimpiya qo'mitasi huzurida Samarqand
paralimpiya sport markazi faoliyat boshladi. Hozirgi
kunda markazda 13 ta paralimpiya sport turidan 312
nafar sportchi 48 nafar trener-o'qituvchi qo'l osti-
da shug'ullanib kelmoqda va sportchilar mamlakat
chempionati hamda xalqaro turnirlarda yaxshi nati-
jalarga erishmoqda.

- Joriy yilning o'tgan davrida viloyatimiz
parasportchilari xalqaro sport musobaqalarida 17
ta medalni qo'lga kiritdi, - deydi O'zbekiston Milliy
paralimpiya qo'mitasi viloyat bo'limi ijrochi direk-
tori Arslonbek Yorqulov. - Jumladan, O'zbekiston
championatlarida 4 ta oltin, Osiyo musobaqasida 1
bronza, xalqaro musobaqalarda 1 ta oltin, 1 kumush,
2 ta bronza medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek,
"Besh tashabbus paralimpiyasi"da 5 ta parasport
turidan 6 ta oltin, 1 ta kumush medal bilan respub-
likada birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Davlatimiz rahbarining "Yoshlar kuni munosabati
bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod
vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi
farmoniga ko'ra, "Kelajak bunyodkori" medali bi-
lan taqdirlanganlar orasida parashashka bo'yicha
O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi,
Samarqand davlat chet tillar institutining 3-bosqich
talabasi, qo'shrabotlik Charos Balikova ham bor.

Charos Balikova faoliyati davomida parashashka
bo'yicha o'n karra O'zbekiston chempioni, Osiyo
championati g'olibi va olti karra jahon chempionligini
qo'lga kiritgan.

- 4-sinfingimdan parashashka bilan shug'ullana-
man, - deydi Charos. - Doim yurtimiz bayrog'ini ja-
hon arenalarida baland ko'tarishni istardim va maq-
sadim yo'lida to'xtab qolmadim. 2015-yilda ilk bor
O'zbekiston chempioni bo'lganimdan keyin terma
jamoaga qabul qilindim. 2017-yilda esa Bolgariya-
da o'tkazilgan jahon chempionatida jahon chempi-
oni bo'ldim. Keyinchalik ko'plab xalqaro turnir va
championatlarda g'oliblikni qo'lga kiritdim. Mehnat-
larim yuqori baholanib, mukofot berilganidan juda
xursandman. Prezidentimiz e'tirofi menga shijoat va
kuch-g'ayrat bag'ishladi. Bu nafaqat mening, balki
oila a'zolarim va ustozlarim xizmatlari uchun berilgan
yuksak baho deb o'ylayman.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Buton koinot bag'rida hayot
mavjud bo'lgan Yer aslida
"Suv sayyorasi" deb atal-
sa, to'g'ri bo'ladi. Chunki
sayyoramizning yettidan bir
qisminigina quruqlik tashkil
etadi. Qolgan bo'lagi esa
batamom suv bilan qoplan-
gan. Okeanlar, dengiz va
daryolardagi suv miqdori
shunchalik ko'pki, uning aniq
miqdori oxirigacha aniqlan-
gan emas, buning iloji ham
bo'lmasa kerak. Ammo para-
doks shundan iboratki, bu
suvning bor-yo'g'i ikki foizga
yaqini foydalanish uchun ya-
roqli chuchuk suvlar. Qolgan
98 qismi okean, dengiz va
ko'llardagi minerallashgan
sho'r suvlardan iborat.

Biroq bandalari uchun behad mehri-
bon Egam Yer sayyorasi shakli-shamo-
yilini shunday yaratganki, insonlarning
suvga bo'lgan ehtiyoji bekamu ko'st
ta'minlab qo'yilgan. Aytaylik, eng baland
tog' cho'qqilari aynan jazirama o'lkalar-
da joylashgan. Bu o'sha joylardagi sha-
har-qishloqlar va ekin maydonlarini suv
bilan mo'l-ko'l ta'minlashga shart-sha-
roit yaratadi.

Shu jumladan bizning serquyosh
o'lkamiz ham o'z ehtiyoji uchun zarur
bo'lgan hayot sharoitlarini Pomir va
Tyan-Shan (Tangritog')dagi qor ham-
da muzliklarning erishi natijasida hosil
bo'ladigan suvlardan oladi. Bu tartib
dunyo yaralgandan beri o'zgarishsiz
saqlanib kelmoqda. Ammo ilm-fan
va zamonaviy texnologiyalar g'oyat
shiddat bilan rivojlanayotgan davrimiz-

da inson tabiat qonunlariga o'zicha
tuzatish kiritmoqda va buning gohida
shirin, gohida achchiq samaralaridan
totimoqda. Masalan, inson zotining bir
avlodi bepoyon Mirzacho'l, Qizilqum va
Qoraqum cho'llarini o'zlashtirish evaziga
O'rta Osiyodagi eng yirik Orol dengizi-
ni quritib qo'ydi. Insoniyatning tabiat
tartiblariga qo'pol ravishda aralashu-
vi oqibatida Yer yuzi iqlimi ilqilashib,
bu borada yangi-yangi muammolarni
paydo qilmoqda. Endi bundan buyon
odamlar bu haqda o'ylashib, mavjud
suv manbalaridan oqilona foydalanma-
sa, kelgusida muammolar yiriklashib,
katta noxushliklarga aylanib ketishi
xatari paydo bo'lmoqda.

Shu ma'noda Afg'oniston ma'mur-
larining Amudaryodan Qo'shtepa
kanalini qazib, suv ta'minotini yax-
shilash haqidagi loyihalari Marka-
ziy Osiyodagi qo'shni mamlakatlar
xalqlarida haqli xavotir uyg'otmoqda.
Podrobno.uz internet sayti ma'lu-
motlariga ko'ra, kanal uzunligi 285
kilometr, kengligi 100 metr, chuqurligi
esa 8,5 metr bo'lishi mo'ljallanmoqda

Jinoyat va jazo

**Samarqand shahrida tug'ilgan U.O. tarkibida
kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan
dori vositalarini Samarqand shahri hududida sot-
ilishini ta'minlash va shu yo'l bilan qisqa muddat-
larda boylik o'ttiritishga qaratilgan g'arazli hamda
boshqa past niyatlar bilan yo'g'rilgan jinoyiy re-
jalarini amalga oshirishni maqsad qilgan. Biroq
buzoqning yugurgani somonxonagacha, deb bejiz
aytilmaganiga o'z taqdiri misolida guvoh bo'ldi.**

**Mo'may daromad istab,
4,5 yil panjara ortiga**

Jumladan, dori preparatlari, giyohvandlik vositalari yoki
psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi
moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish maqsadida jinoyat
ishining qismi alohida ish yurituviga ajratilgan shaxs bilan bir
guruh bo'lib, tezkor tadbirga xaridor sifatida jalb qilingan B.A.
ga 420 dona "Regapen 300 mg" nomli tarkibida kuchli ta'sir
qiluvchi modda mavjud dori vositasini 10 million 500 ming
so'mga sotgan vaqtda ushlangan.

Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudining ochiq
sayyor sud majlisi muhokamasida U.O.ga 4 yilu 6 oy muddat-
ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

**Rahim EGAMOV,
IJQK departamentining Samarqand shahar
bo'limi katta inspektori.**

barobarga oshgan.

Jumladan, dehqonchilik mah-
sulotlari yetishtirish 2016-yilda 10
trillion 592,9 milliard so'm hamda
chorvachilik mahsulotlari yetishtirish 6
trillion 495,7 milliard so'mni tashkil et-
gan bo'lsa, 2022-yilga kelib, dehqon-
chilik 22 trillion 721,9 milliard so'm,
chorvachilik 19 trillion 112,1 milliard
so'mga yetdi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtir-
ish dinamikasining oxirgi besh yillik
ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilgani-
mizda quyidagilar aniqlandi.

Viloyatimizning barcha toifadagi
xo'jaliklari tomonidan tirik vaznda
go'sht mahsulotlari yetishtirish haj-
mi 2017-yilda 265,4 ming tonna,
sut mahsulotlari 1238,1 ming tonna
hamda tuxum 1241,8 million dona
bo'lgani holda 2022-yilga kelib esa
313,2 ming tonna go'sht, 1378,4
ming tonna sut, 1281 million dona
tuxum yetishtirilgan hamda 16825,6
tonna baliq ovlangan.

Endi chorva bosh sonining dina-
mikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak,
viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramol
soni 2018-yil 1-yanvar holatida 1466,4
ming boshni, sigirlar 627,1 ming bosh,
qo'y va echki 2322,7 ming bosh, par-
randalar 9589,3 ming boshni tashkil
etgan. 2023-yilning 1-yanvarida yirik
shoxli qoramol soni 1,694 ming bosh,
sigirlar 736,7 ming bosh, qo'y va ech-
kilar 2,607,3 ming bosh hamda parran-
dalar 14278,5 ming bosh bo'ldi.

**Fazlulloh ESHONQULOV,
viloyat statistika boshqarmasi
axborot xizmati rahbari.**



ekan. Kanalning suv o'tkazish qobili-
yati bir soniyada 650 kub metr qilib
belgilangan. Loyihaning taxminiy qiy-
mati 680 million AQSH dollarini tashkil
etishi aytilmoqda. Loyihachilarning
hisob-kitoblariga ko'ra, ushbu sun'iy
daryo uch million jirib (bir jirib – 2000
kvadrat metr) yerni sug'orib, qishloq
xo'jaligini rivojlantiradi va 250 ming
odamni ish bilan ta'minlaydi. Internet
saytining xabar berishicha, hozir-
ning o'zida uning 40 kilometrlik qismi
kavlanib bo'lingan va ish 2028-yilda
yakunlanishi mo'ljallanmoqda. Albat-
ta, bu holat kelgusida quyi oqimda
joylashgan Turkmaniston va O'zbekis-
tondagi suvdan foydalanuvchi aholi
uchun mushkulliklar paydo qilishi aniq.
Nega desangiz, hozirning o'zida Amu-
daryo suvining turli sabablarga ko'ra
kamayishi oqibatida Turkmaniston, Xo-
razm va Qoraqalpog'iston suv ta'minoti-
da tanqislik yuzaga kelmoqda.

Toliblar tomonidan idora qilinayot-
gan Afg'oniston xalqini o'zaro mojaro
va nizolardan chekinib, tinch qurilish
ishlari bilan shug'ullanishni bosh-

laganining o'zi biz uchun shubhasiz,
yaxshi xabar. Qolaversa, afg'onlarning
ham o'lkadagi suv manbalaridan o'z
ulushlarini olish huquqlarini hech kim
inkor qilolmaydi. Ammo bunda yuqori-
da yozganimizdek, o'zaro kelishgan
holda oqilona ish tutish muhim ahami-
yatga egaligicha qolaveradi. Bo'z
yerlarni suv bilan ta'minlash borasida
O'rta Osiyo respublikalarida beqiyos
katta tajriba to'plangan. Keyingi yillar-
da suvni tejaydigan unumli texnologi-
yalarning kirib kelayotgani bu borada
yangi ufqlarni ochmoqda. Shu ma'noda,
afg'onistonliklarga ham bunaqa
katta kanal balki kerak bo'lmay. Dono
xalqimizda: "Kengashib bichilgan to'n
tor kelmas", degan ibratli naql bor.
Bir daryodan suv ichib, bir havodan
nafas olib kelgan xalqlarimiz uchun
bu borada kengashib ish tutishdan
o'zga oqilona yo'l yo'q. Prezidentimiz
2022-yil oxirlarida bu to'g'rida tolibon-
lar bilan muzokara o'tkazib, xalqaro
hamjamiyatni ogoh qilib qo'yishi haqi-
da aytgandi. Biroq muammo shundan
iboratki, Afg'oniston islom amirligi bu
boradagi biror shartnoma yoki xalqaro
qo'mita va komissiyalarga a'zo emas.

Shu yil 22-martda toliblar vakili
mamlakatimiz prezidentining tashqi
ishlar bo'yicha vakili Abdulaziz Komil-
ov bilan muzokara o'tgan uchrashuvda
Qo'shtepa kanali qurilishi O'zbekiston
tomonidan o'zaro tushunish asosida
amalga oshirilishi lozim ekanligini izhor
qildi. Vakil Abdul G'ani Barodarning
fikricha, kanal qurilishi ikki davlat
orasidagi munosabatlarning mus-
tahkamlanishiga xizmat qiladi. Dav-
latimizning bu boradagi siyosati har bir
masalani hamjihatlik va vazminlik bilan
hal qilish taomiliga asoslanadi.

**Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.**

YANGI INSHOOTLAR MUAMMOGA YECHIM BO'LADI(MI?)

**Tirbandlik, piyodalar yo'laklarining noqonuniy egallangani, ichimlik va oqova
suv tarmoqlaridagi kamchiliklar Samarqand shahrining eng katta muammo-
laridan hisoblanadi. Dunyoning yetakchi davlatlari andazalari va soha muta-
xassislarini jalb qilgan holda yaqin kelajakda Samarqand shahridagi mazkur
muammolarga yechim topish rejalari ishlab chiqildi.**



Buning uchun 2022-yil 8-sentabrda
Prezidentimizning "Abu Dabi Taraqqiyot
jamg'armasi ishtirokida "Samarqand shahri-
da suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlarini
modernizatsiya qilish" loyihasi amalga o-
shirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaro-
ri qabul qilindi. Qarorga asosan, Abu Dabi
Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Samarqand
shahrida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmo-
qlarini modernizatsiya qilish" loyihasi amalga
oshirilmoqda. Loyihani amalga oshirish uchun
Turkiya, Xitoy va mahalliy qurilish kompaniyalari
konsorsiumlari tenderda g'olib bo'ldi. Loyiha
doirasida ish hajmlari 4 ta LOTga ajratilgan va
pudrat kompaniyalari tomonidan obyektlarni
"Qurilish ishlari tayyor holda topshirish" sharti
bilan qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, yo'llar qurilishi bo'yicha Amir
Temur ko'chasining Bo'stonsaroy ko'chasidan
Gagarin ko'chasigacha bo'lgan 2,3 kilometr
hamda Gagarin ko'chasining Gulobod ko'chasi-
dan M-37 avtomobil yo'ligacha bo'lgan 9,2
kilometr qismini qurish va rekonstruksiya qilish
rejalashtirilgan. Bugungi kunda pudratchi "New
Tech Samarqand" MCHJ & "SinoIndustrial
Tashkent" MCHJ & "Tekar Teknik Arastirma
Ticaret Limited Sirketi" (O'zbekiston/Turkiya)
konsorsiumi tomonidan loyihalashtirish va qu-
rilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda. Amir
Temur ko'chasida qurilish ishlari boshlandi va
ko'chaning 1-bosqichida piyodalar yo'laklari va
yo'l asosini qurish ishlari, piyodalar yo'lagiga be-
ton va plitkalar yotqizish ishlari olib borilmoqda.
2-bosqichda yo'lning bir qismida uski qatlam-
ni kesish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek,
Gagarin ko'chasida buzilishga tushgan obyek-
tlarni aniqlash, qurilish obyekti loyihasi qizil
chizig'ini belgilash ishlari bajarilmoqda.

Yo'llardagi tirbandlikni kamaytirishda tunnel
va ko'priklar eng samarali yechim hisoblanadi.
Samarqand shahrida Bo'stonsaroy va Rudakiy
ko'chalari kesishmasida qurilgan tunnel misoli-
da oladigan bo'lsak, mazkur inshoot chorra-
hadagi tirbandliklarga yechim bo'ldi. Shu bois
ko'priklar va tunnellar qurilishi bo'yicha ikkin-
chi yo'nalishda 2 ta tunnel (Gagarin – Mirzo

Ulug'bek ko'chalari kesishmasida 750 metr,
inshoot uzunligi 44 metr, Gagarin – Rudakiy
ko'chalari kesishmasida 650 metr, inshoot
uzunligi 50 metr) va 2 ta ko'priklar (Gagarin
ko'chasidagi temiryo'l ustida 78 metr, Siyob
kanali ustida 165 metr) qurilishi rejalashtirilgan.
Bugungi kunda pudratchi "Me'mor Utkir Chov-
ka LLC" & "Shaanxi Road and Bridge Group
Co., Ltd" konsorsiumi tomonidan Gagarin va
Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida oqova
suv, gaz quvurlari hamda aloqa tarmoqlarini
ko'chirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek,
Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesish-
masida tunnel qurilishi hamda temiryo'l ustidan
o'tuvchi ko'priklarda BNS svayaga karkas to'qish,
beton quyish ishlari olib borilmoqda.

Suv inshootlarini qurish ham muammo ye-
chimida eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.
Uchinchil lotga ajratilgan ushbu yo'nalishda 6
ta nasos stansiyasi va 2 ta suv inshooti re-
konstruksiya qilinadi. Hozirgi kunda pudratchi
"MESMER-EAST LLC" (O'zbekiston) & "Gb3Lb
N AAT" (Turkiya) konsorsiumi tomonidan
loyihalashtirish ishlari bajarilmoqda.

To'rtinchi lotda Amir Temur ko'chasida,
Bo'stonsaroy ko'chasidan Gagarin ko'chasi-
gacha 2,3 kilometr hamda Gagarin ko'chasida
8,9 kilometr suv tarmoqlari quriladi.

Bugungi kunda, pudratchi "MESMER-EAST
LLC" (O'zbekiston) & "Gb3Lb N AAT" (Turki-
ya) konsorsiumi tomonidan Samarqand shahar
Amir Temur ko'chasida 2100 metr uzunlik-
da tarmoq montaj ishlari yakunlandi. Montaj
qilingan 84 metr tarmoq pnevmatik sinovdan
o'tkazildi. Gagarin ko'chasining O'zbekiston
ko'chasi kesishmasidan Amir Temur ko'chasiga
tomon transheya qazish ishlari olib borilmoqda.
Obyektida diametri D-800 bo'lgan 180 metr
tarmoq montaj qilindi.

Ahamiyatli, tarmoq tortish ishlarida ilk bor
cho'yan quvurlardan foydalanilib, suv tarmog'i
tortilmoqda. Bu quvurlar suvning sifatiga ta'sir
qilmaydi, payvandisiz bir-biriga bog'lanadi va
asosiy, noqonuniy ulanishlarga barham beriladi.

**Olimjon ALIXO'JAYEV,
loyihani amalga oshirish guruhi rahbari.**

AGRAR TARMOQning IQTISODIYOTDAGI ULUSHI QANDAY?



**Xalqimizning turmush darajasini oshirish, oziq-ovqat xavf-
sizligi va aholi bandleligini ta'minlash, barqaror rivojlanishga
erishishda qishloq xo'jaligining o'rni katta. Shu bois mam-
lakatimizda agrar sohani isloh qilish va bozor tamoyillarini
joriy etishga alohida e'tibor qaratilib, sohaga doir ko'plab
hujjatlar qabul qilinmoqda.**

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning
asosiy o'sish nuqtasi va drayveri bo'li-
shi uchun sohani 2030-yilgacha rivoj-
lantirish strategiyasi qabul qilingani
minglab yangi ish o'rinlari yaratish,
aholining real daromadini oshirishda
o'z samarasini beryapti.

Albatta, erishilayotgan natijalar
yaxshi, lekin hozirgi davr bu boradagi
ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni,
ertangi kunni o'ylab, uzoqni ko'zlab,
islohotlarni yangi bosqichga ko'ta-
rishni taqozo etmoqda. Demak, endi

mahsulot ishlab chiqarishni ko'pay-
tirish bilan birga, import qilinayotgan
tovarlar o'rmini qoplash har qachon-
gidan ham muhimroq.

Viloyatimiz bo'yicha jami qishloq
xo'jalik mahsulotlari yetishtirish haj-
mini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu
ko'rsatkich 2010-yillarda bor-yo'g'i
5 trillion 368,6 milliard so'mni tashkil
etgan. 2016-yilda 17 trillion 88,6
milliard so'mga hamda 2022-yil-
ga kelib, 41 trillion 833,9 milliard
so'mga yoki 2010-yilga nisbatan 7,8

Dolzarb mavzu

kuchli ekan, men faqat darsimni o'tsam bo'ldi, degandim. Keraksiz topshiriqlardan bezor bo'ldim. Buning ustiga maktabda mukofot puli degan narsa yo'q, biror bayramda o'qituvchi rag'batlantirilmaydi. Holbuki boshqa korxona va tashkilot xodimlari bayramlarda mukofot puli oladi.

Maktab o'qituvchilarining bundan tashqari ham bir talay muammosi bor.

- Hamma pedagoglar yozgi ta'tilni intizorlik bilan kutadi, - deydi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi. - Chunki maktabda 30-40 nafar o'quvchiga dars berish, ularni tartibga chaqirish, tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchilarni charchatadi. To'g'ri, ta'til berilgani bilan o'qituvchilar har kuni maktabga bir ko'rinish ketishi kerak, tartib shunaqa. Buning ustiga, har bir o'qituvchi o'zining xonasini o'zi ta'mirlaydi. Maktabimizda o'quvchilardan pul yig'ish to'xtatilgach, bu muammo pedagoglarning zimmasiga yuklatilgan. Nimayam derdik, o'zimiz usta topib, xonamizni ta'mirlatamiz. Bu muammolardan buzilgan asablari-mizni dam olish sihatgohlarida davolatsak qani edi?!

- Hozirgi kundagi o'qituvchilar uchun eng katta muammo - kundalik.com, - deydi boshqa bir o'qituvchi. - Internet aloqasining sustligi yoki elektr energiyasidagi uzilishlar sabab garchi maktablarga optik tolali internet yetib borgan bo'lsa ham Wi-Fi ishlamay qoladi. Shu narsa tufayli kundalik.comga kiritilgan baholar saqlanib qolmaydi. Oqibatda o'qituvchining elektron jurnalini yuritish foizi pasayib, maktablar "qizil"ga tushib qolyapti.

Xalq orasida: "O'qituvchining tuprog'i yengil", degan gap bor. Ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchining javavaga tushgani videosi tarqalsa, hech kim o'qituvchini shu darajaga cha olib borgan sababni ko'rsatmaydi-yu, obunachilarini ko'paytirish uchun ziddiyatning avj nuqtasini yoritishga harakat qiladi. O'quvchi kamida o'ttizta tengdoshi oldida o'qituvchisiga gap qaytarsa, unga ustoz qanday javob berishi kerak? Yaponiyada o'qituvchining soyasini bosib o'tish ham uyat, jinoyat, deb hisoblanarkan. Bizda esa soyasi tugul o'zini ham "bosib o'tib ketish" hollariga duch kelyapmiz.

Bugun ta'lim tizimi quyidan yuqoriga qadar isloh qilinmoqda. Aslida pedagoglar fikrlariga quiloq tutilsa, ularning muammolari tinglansa va yechim topilsa, mana shu adolatli islohot bo'lardi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Bugun ko'pchilik yoshlarning maktabda yaxshi o'qimasligi, yetarli bilim olmasligiga o'qituvchilarni aybdor sanashadi. Haqiqatda ham o'quvchilarning bilim olishga qiziqmasligiga o'qituvchi aybdormi? Balki masalaning boshqa tomonlari bordir? Keling, pedagoglarni ham eshitib ko'raylik, yoshlarning ta'lim olishga qiziqmasligi sababini ular qanday izohlashadi?

Maktabda dars berish osonmi yoki qiyin?

Pedagoglar nimadan norozi?



- Ta'lim to'g'risida kunda bitta qonun chiqib, asabni buzayti, - deydi oliy toifali o'qituvchilardan biri. - Topshiriqlar ko'p, buning ustiga kechgacha darsda bo'laman. Hali bellashuv qil, hali ochiq dars qil, taqdimot qil, deydi. Ishonasmizmi, bosh qashishga vaqtim yo'q. Televizor ham ko'rmay qo'ydim. Ketma-ket nazorat ishlari, daftar tekshir kabi yumushlar bilan kech bo'lganini bilmay qolaman. O'z ustimizda ishlashga vaqt bo'lmayapti, aslida bizdan so'ralishi kerak bo'lgan narsa shu. O'qituvchiga ortiqcha topshiriqlar berilayotgani bois asosiy masala eng oxirgi o'ringa tushib qolgan. Qaniydi, bizdan faqat darsni puxta o'tish so'ralsa. Qolgan vaqtimizni o'z ustimizda ishlashga sarflardik.

Muallimaning bunday fikrlarini eshitgach, demak, hamma aybni o'qituvchiga ag'darish adolatdan emasligini tushundim. Yaqinda bir yosh o'qituvchi tahririyatimizga keldi, yozib kelgan maqolasi haqida biron suhbatlashdim.

- Nurobod tumanidanman, matematika fanidan dars beraman, - dedi o'qituvchi. - Maktabga katta ishtiyok bilan ishga kirdim, o'zimcha hamma bolani a'lo bahoga o'qitaman, degan niyatda edim. Ammo ko'p o'tmay, hafsalam pir bo'ldi, chunki hozirgi bolalar o'qishga qiziqmas ekan. Nomiga kelib ketadigan o'quvchilarga dars o'tgim ham kelmay qolarkan. - Ham maktabda, ham o'quv

markazda dars beraman, - dedi taksida bir yo'lovchi yigit. - Endi maktabni tashlab, butunlay o'quv markazga o'tib ketmoqchiman. Sababi, o'quv markazda o'qituvchiga maktabdan ko'ra yaxshi maosh beriladi. Bundan tashqari, maktabda ishlash juda qiyin, ota-onalar farzandining o'qishiga qiziqmaydi, ammo bolamni urishibdi deb, ustingizdan arz qilib keladi. Bolangiz dars qilmaydi, o'qishga umuman qiziqmaydi desam, buyog'i bilan ishing bo'lmasin, deydi. O'quv markazga esa hech bir ota-ona bolamni urishibsan, deb kelmaydi.

- Allo, assalomu alaykum, men tahririyatga tushdimmi? - deydi o'zini o'qituvchiman deb tanishtirgan ayol telefon orqali suhbat avvalida.

- Maktabimizda ota-onasi xorijga ketgan bolalar ko'p, ular qarindoshlarining qo'lida qolgan. Tabiiyki, qarindoshlar bola bilan ota-onadek har kuni dars qilmaydi, faqat qorni to'x, usti bot bo'lsa bo'ldi. Ota-onasi xorijga bo'lgan bolalarni bilim olishga qiziqtirib bo'lmaydi. Shuningdek, ajrashgan oilalar bolalari ham maktabda yaxshi o'qimaydi. Surishtirsangiz, onasi ajrashgach, bolalarini qarindoshlariga qoldirib, o'zi xorijga ketgan bo'ladi. Bunday bolalarning o'y-fikrlari, dunyoqarashi ham boshqacha bo'ladi. Shu mavzuda maqola yozsam degandim, zora ota-onalar qayerda xato qilayotganini tushunsa.

- Ishimni o'zgartirmoqchiman, - deydi yoshgina rus tili fani o'qituvchisi. - Maktabda bosim

OLIMLIK RUTBASINING MAS'ULIYATI

Filosofiya atamasi donishmandlikni sevish, donishmandlik haqidagi ta'limotni ifoda etadi. O'rta asrlarda yashab o'tgan faylasuflarning hayoti va ijodi o'rganilsa, haqiqatdan ham ular donishmandlik rutbasiga erishganligi, bu ularning hayotida aks etganini ko'ramiz. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkir olimlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'tgan davrlarda olimlarning nazariyalari, asarlari ko'pchilikning dunyoqarashiga ta'sir qilgan, ilmfan, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Ammo ular bilan bugungi "aqli donishlar"ning suvrati va siyrati, hatto metodologiyalari o'rtasida katta farq borligi seziladi. Sodda qilib aytganda, hozirgi zamonda faylasuflarning soni ortib borsa-da, ular orasida donishmandlikda hayot kechiruvchilari barmoq bilan sanarli.

Olimlar yo'ldi yulduzdir. Haq yo'ldi izlaganlarga ular doimo to'g'ri yo'ldi ko'rsatib berishgan. Akademik Said Shermuhamedov, professor Bekmurod Normurodovlar o'z davrining ana shunday donishmand olimlaridan edi. Xususan, Said Shermuhamedov o'z davrida vazir lavozimida ishlagan

bir paytda yuzlab faylasuf olimlarni tarbiyaladi. Uning turmush tarzi, odamlar orasida o'zini tutishida, o'zligini saqlashda donishmandlik alomatlarini sezilib turardi. Iste'dodli yoshlarni ilmiy ishlari himoyalarda qo'llab-quvvatlardi. Ularni ayrim ayrim o'rtasida katta farq borligi seziladi. Sodda qilib aytganda, hozirgi zamonda faylasuflarning soni ortib borsa-da, ular orasida donishmandlikda hayot kechiruvchilari barmoq bilan sanarli.

Xuddi shunday insoniy fazilatlar, husni-xulqlari barchaga birdek o'rnatilgan ilm kishilaridan biri G'aybullo as-Salom ham yuzlab olimlarning ustozlari edi. U kishining buxorolik iste'dodli bir shogirdi moliyaviy qiyinchiliklar sababli Toshkentdan Buxoroga qaytib keladi. Ustoz Buxoroga borib, uning holidan xabar olib, yana poytaxtga, yoniga olib ketadi. O'sha shogird keyinchalik ustozining qo'llab-quvvatlovi bilan

professor ilmiy darajasiga erishadi.

Olimlikning ham o'z talabi, axloq-odobi bor. Keyingi yillarda hududlarda ixtisoslashgan ilmiy Kengashlar faoliyatiga katta e'tibor berilyapti. Ammo o'ta sayoz mavzulardagi ishlar himoya qilinib, iqtidori, iste'dodi bo'lmaganlarga ham ilmiy darajalarning berilishi ilimga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatning susayishiga olib kelmasligi lozim. Qolaversa, ilmiy tadqiqotlarda eskicha uslub qotib qolgan. Nazarimda, endilikda o'z davrini o'tab bo'lgan ilmiy mavzular, tadqiqotlarni takrorlayvermasdan, zamon talabiga mos astronomiya, nanotexnologiya, kibernetika, ekologiya yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga ko'proq urg'u berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yusufjon SALIMOV, sotsiologiya fanlari nomzodi.



10 ming so'mlik mehr

Haftaning yakshanbasi. Birinchi sinfga chiqqan Marjona bugun odatdagidan kechroq uyg'ondi. Joyidan turdi hamki, narigi xonadan otasining ovozi eshitildi.

Odatda Marjona uyqudan turganda otasi ishga ketgan, uxlashga yotganda esa u hali qaytmagan bo'lardi. Dam olish kunlari ham ahvol shu.

Marjonaning yuziga tabassum yugurdi. Nahotki, bugun u dadasini ko'radi? Shu o'y bilan jajji qalbi quvonchga to'ldi, "Dadajon", deya yugurib chiqdi. Otasini noutbuk ustida bukilgan, bir qo'lida telefon tutib, kim bilandir baland ovozda janjallashayotgan holatda topdi. Baxtini hurkitib yubormaslik uchun sekin borib, otasining oyog'idan quchdi.

Ota juda band. U erta bilan mashinasi buzilib, ishga borolmaganidan jig'ibiyron. Qiziga bir o'qayib qaradida, ishida davom etdi. Bu nigoh

Marjonaning yuzidagi quvonch shu'lasini puflangan sham misoli o'chirdi.

Yana bir ilin. Marjona otasining telefonda gaplashib bo'lishini kutdi. Fursat yetgach, yurak yutib gap boshladi, "Dadajon, sizni sog'indim. Men bilan ham bir oz o'ynang". Javoban, "Qizim halaqit berma. Men sizlarning yaxshi yashashingiz uchun ishlayapman. Har bir daqiqam pul turadi", degan gaplarni eshitdi.

Marjona taslim bo'lmadi. "Dadajon, bir kunda qancha pul topasiz?", uning navbatdagi savoli shunday bo'ldi. Ota qizining bu so'rog'iga tayyor emas edi, javob bera olmay qoldi. Shunda qiz xonasiga yugurib kirdi va buvisi bergan 10 ming so'm pulni olib chiqdi. Hovuchidagi pulni dadasiga uzatar ekan, yana so'radi, "Dadajon, shu pullar 10 daqiqa vaqtigizni sotib olish uchun yetadimi? Birga o'ynar edik".

Zinura RAJABOVA, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

13-IYUL
Diyora KELDI-YOROVA - 1998-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi. O'zbekiston xotin-qizlari o'rtasida dzyudo bo'yicha birinchi xalqaro chempioni.

Bahrom OQILOV - 1955-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Yevropa chempioni.

14-IYUL
Isoxor OQILOV - (1914-1988) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

"Qirq yillik tarbiya"

Viloyat "Ovoz Samarqand" gazetasi bosh muharriri, falsafa doktori Bahodir Ubaydullohning yangi kitobi shunday nomlangan. Shu yil "Qalam" nashriyotida chop qilingan bu kitobda muallifning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan falsafiy xulosalari, mushohadalari jamlangan.

Kitob "So'zboshi", "Hayot endi boshlandi", "Baxtning ikkinchi nomi - shukrona". "O'zim bilan suhbat", "Insoniy sifatlar... sotib olinmas", "Hayotni bilmaganimiz uchun... tirikmiz, bo'lmasa, o'lmas edikmi?", "So'z mavridin bilish hikmatdir", "Qadring bilan qolar, bilimang ketar" kabi fasllardan iborat bo'lib, ularlar muallifning hayotda o'zi guvoh bo'lgan, ko'rgan-kechirgan voqea-hodisalar, vaqtning qadriga yetish, insoniy sifatlar-ni egallash, inson qadri, ota va farzand munosabati to'g'risidagi qarashlari falsafiy ruhda bayon qilingan. Bu haqda muallif go'zal bir ishtiboh keltiradi: Bu saboq daftrai hayot yo'llarimdagi turli muammo va mashaqqatlar, og'ir vaziyatlar va baxtli damlar samarasi ila paydo bo'ldi, Shunday kunlarning birida shu qadar tushkun kayfiyat va holatga tushdimki, nima qili-

shimni bilmay qoldim. Keyin suv jo'mragini ochib, kaf-timni suvga to'ldirdim... suv to'lib, kaftimdan oshib tushaverdi. Uni siqdim, baribir oqaverdi... Xulosa qildim: nima qilishing, qanday ahvolda qolishingdan qat'i nazar, bari o'tadi... vaqt ham kutib o'tirmaydi, qo'lingdan keladigan faqat bor imkoniyatdan foydalanib, o'zligingni topib, hayotga yangicha qarash ila maqsad sari intilishing kerak.

Kitob bu kabi kutilmagan tashbehu sifatlasharga boy, yengil o'qiladi va kitobxonning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asar o'quvchini vaqtning, insonning qadriga yetishga undaydi. Har bir fikrda o'ziga xos ma'no mujassam bo'lib, kishini yaxshilikka yetaklashi bilan ahamiyatli. Kitobdan olinajak bunday zavqdan Siz, aziz mushtariyning ham bahramand bo'lishini istardim.



Armonning surati

Tong sahar uyg'onib ketdim. Qaytib uyqum kelmadi. Onajonimni esladim (aslida kunu tun yodi bilan edim), jilmayib turgan nurli yuzlarini ko'z oldimga keltirib, xayolan suhbatlashdim. Keyin telefonimdagi suratlariga galma-gal qaradim. Ha, xuddi o'zlarini ko'z oldimga gavdalantirib olaman, go'yo menga qarab gapirib turibdilar. Ilohim, bir umr mehrli yuzlarini suratsiz ham ko'ra olay, deb niyat qildim.

Bomdod namozi vaqtiga yaqinlashibdi. Qishloq masjidda azon aytilsa, uyimizda eshitiladi. Shunga qaramay, otamni ertaroq uyg'otay, deb yonlariga borib, "ota, turasizmi, bomdod vaqti bo'lyapti", dedim sekingina.

Otam yotgan joylarida o'ng tomonga ag'darilib, qo'llarini tashladilar. Tashladilar-u qo'llari onamni topolmay, ko'zlarini yarq etib ochib, men tomonga yuzlandilar.


Ko'zlarimiz to'qnashdi. Judayam qisqa bir vaqtda bo'lgan bu holatdan ikkimizning ham ko'zlarimizga yosh to'ldi. Bu lahzalarni eslamog ham, unutmog ham og'ir...

Kitobning davomini o'qishga jur'atim yetmay, bo'g'zimga nimadir tiqildi. Ko'nglimga tasvirlash qiyin bo'lgan mahzunlik oraladi. Kitobni o'qish davomida onani sog'ingan farzandning o'kinchu sog'inchilarini ich-ichimdan his qildim, uning armonlari ko'nglimga ko'chganligini sezdim. Yuragimning qayeridir simillab, o'zi-

ning bezovtaligini sezdirib qo'ydi. Xayolimda onamning qiyofasi qad rostlab, "Men onamga loyiq farzand bo'la oldimmi?" degan savol charx ura boshladi.

Bu yarador tuyg'ular, ezig'in hislar jurnalist G'olib Hasanovning "Onamga qasida" asarini o'qigan har bir kitobxonning ko'nglida uyg'onishi tabiiy.

Yangi kitoblar



Kitobxonlar e'tiboriga havo-la qilinayotgan bu asar yaqinda Toshkentda "SAHHOF" nashriyotida chop etilgan.

Kitobda muallifning ona haqidagi rangin xotiralari, esda qolarli voqealar qalamga olingan. Asar o'ziga xos uslubda yozilgan, ta'sirchan lavhalarga boy.

Dunyoda har bir insonning ona haqida o'z so'zlari, istak va armonlari bor. Ona haqidagi asarlar-ni barchasi sodda, beg'ubor va mehribon zot tasviriga bag'ishlangan. Ularni o'qiganda ko'z oldingizda so'lim qishlog'ingiz, shudring bosgan dalalar, dasturxon atrofiga jamuljam bo'lib, ona bilan bo'lgan suhbatlaringiz namoyon bo'ladi. Ko'ksingizni to'ldirib nafas olgungiz, onaning qadoq bosgan qo'llarini ko'zingizga surtingiz keladi.

Kitobdagi voqealar xotirangizni jonlantiradi, o'ylashga, mushohadaga chorlaydi.

Zero, ijodkorning maqsadi, asar-niing qo'ldan qo'ymay o'qilishi sababi ham shunda.

Tolib JO'RAYEV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 350 nusxada chop etildi. Buyurtma ____, Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

